

INGLIZ TILINI MAXSUS VA MUAYYAN MAQSADLARDA O'QITISHDA O'QISH (READING) KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING QISQACHA RETROSPEKTIV SHARHI

Dadabayev Zafar Zakirovich,

Namangan Davlat Pedagogika Instituti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi,

Tel: +99893 4935885

E-manzil: zucker_ru@mail.ru

Annotatsiya: *Dunyoning rivojlangan davlatlarida so'nggi bir necha yil ichida maxsus yo'nalishlarga ingliz tilini o'qitish bo'yicha qiziqishlar ortib bormoqda. Shu jumladan, ingliz tilini muayyan va maxsus yo'nalishlarda o'qitish bizning mamlakatimizda ham anchagina o'z nufuziga ega bo'ldi. Endi, ingliz tilini umumiy maqsadlarda ESP (English for general purposes) egallashlari emas, balki boshqa soha vakillari ham o'zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) o'rganishlari zamon talabi etib qo'yilmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilini maxsus yo'nalishlarda o'qitishda nutq faoliyatining bir qismi hisoblangan o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tilini maxsus va muayyan maqsadlarda o'qitish, o'qish, o'qish texnikasi, matn, o'qish materiallari, o'qish kompetensiyasi.*

A BRIEF RETROSPECTIVE REVIEW OF DEVELOPING READING COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP)

Abstract: *This article highlights the growing interest in English Special Purpose (ESP) teaching in developed countries, as well as the observed prestige of this area of teaching in our country. The importance of developing reading competence as an important element of speech activity within the framework of ESP teaching is discussed. It analyzes how changes in professional qualification requirements affect the need to learn English for specific purposes. The article focuses on the importance of developing reading skills, which helps professionals effectively master specialized terminology and deepen professional knowledge within their field of activity.*

Keywords: *teaching English for special and specific purposes, reading, reading technique, text, reading materials, reading competence.*

КРАТКИЙ РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ОБЗОР РАЗВИТИЯ НАВЫКА ЧТЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ КОНКРЕТНЫХ ЦЕЛЕЙ (ESP)

Аннотация: *В данной статье освещается растущий интерес к преподаванию английского языка по специальным направлениям (ESP) в развитых странах, а также наблюдаемый престиж этого направления в обучении в нашей стране. Обсуждается значимость развития читательской компетенции как важного элемента речевой*

деятельности в рамках обучения ESP. Анализируется, как изменение требований к профессиональной квалификации влияет на потребность в изучении английского языка для специальных целей. Статья делает акцент на важности развития читательских навыков, что помогает профессионалам эффективно осваивать специализированную терминологию и углублять профессиональные знания в рамках своей сферы деятельности.

Ключевые слова: обучение английскому языку для специальных и специальных целей, чтение, техника чтения, текст, материалы для чтения, читательская компетентность.

KIRISH

Jahon hamjamiyatida har qanday davlatning mavqei aholisining turmush darajasi hamda siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining omili hisoblanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini taminlovchi omillar ta'lim sohasini rivojlanishiga bevosita bog'liq.

Ta'lim muassasalari yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashi, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berishi, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishi va kengaytirishi, estetik tarbiyalashi hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilishga tayyorlashi lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoning rivojlangan davlatlarida so'nggi bir necha yil ichida maxsus yo'nalishlarga ingliz tilini o'qitish bo'yicha qiziqishlar ortib bormoqda. Misol qilib aytishimiz mumkinki, Polsha davlatida turli soha vakillariga til o'qitish bo'yicha (ESP) darsliklar va o'quv materiallarining keng assortimentini o'quv jarayonlariga tizimli tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda, Polsha davlatining oliy ta'lim muassalarida ESP kurslari tashkil etilgan, asosiy yo'nalishlardan biznes va menejment, huquq, iqtisod va kimyo yo'nalishlaridir. Bundan tashqari, ushbu yo'nalishlarga darsliklar, materiallar sxematik tuzulgan bo'lib talabalarni rag'batlantirish yo'llari bilan tilni o'rgatishga hamda kasbiy mahoratlarni rivojlantirishlariga qaratilyapti. Ayniqsa mutaxassisliklariga qarab, talabalarining talaffuz va berilgan topshiriqni o'qib tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish aynan turli soha vakillariga tilni o'qitishda Polshaliklarning pirovard maqsadlaridan biridir.

Yunon va Rim imperiyalari davridanoq muayyan maqsadlar uchun tilni o'rgatish (ESP) haqida fikrlar berilgan. Strevens ESPni muayyan maqsadlarda yoki turli soha

vakillariga ingliz tilini o'qitishni ikkinchi jahon urushi oxirlariga borib taqaladi degan g'oyalarni bergan. Ya'ni, ingliz tilini muhandislar, shifokorlar, tilshunoslar yoki ofitserlarga o'rgatishning asosiy maqsadi aynan anashu kasb bo'yicha yetuk kadr bo'lishiga xizmat qilishi uchun barcha turli soha vakillariga o'rganishlari uchun joriy etilgan.

Devid Karter ESPning bir necha turlarini tahlil qiladi: English as a restricted language (Cheklangan til sifatida ingliz tili), English for Academic and Occupational Purposes (Akademik va kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili), English with specific topics (Muayyan mavzular bilan ingliz tili).

Shuningdek, Karter Akademik va kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili (Academic and Occupational Purposes) ham uch turga bo'lib tahlil qiladi: a) English for Science and Technology (EST), b) English for Business and Economics (EBE), va c) English for Social Studies (ESS).

Shu bilan bir qatorda Karter ingliz tilini maxsus mavzular bilan o'rganish (English with specific topic)da maqsaddan qarab mavzuga yo'naltirish deya ta'kidlaydi. Ingliz tilini talab qiladigan olimlarning kelajakdagi ingliz ehtiyojlari bilan aspiranturada o'qish, konferensiyalarda qatnashish yoki xorijiy muassasalarda ishlash maqsadlari ro'yobi uchun tashkillangan.

Endilikda, ingliz tilini muayyan va maxsus yo'nalishlarda o'qitish bizning mamlakatimizda ham anchagina o'z nufuziga ega bo'ldi. ingliz tilini umumiy maqsadlarda ESP (English for general purposes) egallashlari emas, balki boshqa soha vakillari ham o'zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) o'rganishlari zamon talabi etib qo'yilmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilini maxsus yo'nalishlarda o'qitishda nutq faoliyatining bir qismi hisoblangan o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga to'xtalamiz.

Nutq faoliyatining bir turi o'qish kompetensiyasi hisoblanadi. O'qish-ko'z bilan ko'rib turilgan harf, harf birikmalari, so'zlar, gaplarni ovoz chiqarib, chiqarmay o'qish va o'qiganning mazmunini tushunish, o'qib ma'lumot olishdir. O'qish yozma nutqda berilgan matndan ma'lumot olish nutq turidir. O'qish-tanish til materiallari asosida notanish mazmunli matnni o'qib ma'lumot olish, hamda mazmunini tushunishdir.

O'qish aloqa (kommunikatsiya) qilishning bir turidir. O'qish orqali talaba ingliz tilida gaplashiladigan davlatlar tili madaniyati, hayoti, tarixi, urf-odati bilan tanishadi. O'qish ma'lumot olish manbaidir. O'qish kishilarning ijtimoiy faoliyat sohasiga taalluqli bo'lib, unda u yozma shakldagi so'z orqali muomalani ta'minlaydi. Kishilarning turmush, ta'lim va ishlab chiqarish sohalaridagi faoliyatlarida o'qishdan keng foydalaniladi. O'qish orqali ma'lumot

olish turli faoliyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'qishda boshqa har qanday faoliyatdagi kabi mazmun va jarayon rejalari mavjud bo'lib, birinchisiga doimo katta ahamiyat beriladi. Faoliyatning predmet mazmunini tashkil qiluvchilar o'qishning mazmun rejasi sanaladi. Faoliyat jarayonining elementlari o'qishning jarayon tomoni hisoblanadi. Faoliyat mazmuniga, natijalarini kiritadilar. Odatda o'qishda faoliyat ana shu maqsadga erishishga qaratilgan bo'ladi. Mazmun aloqalarini ochish-nutq mahsulotini, ya'ni yozma shaklda taqdim qilingan matnni tushunish o'qishdagi ana shunday maqsadni tashkil qiladi. O'qish doimo tayyor holdagi nutq axborotini idrok qilishga, ma'lumot olishga yo'nalgan bo'ladi, shuning uchun uni nutq faoliyatining retseptiv yani qabul qiluvchi turiga kiritiladi. O'qishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi haqidagi baho kitobxonning olingan ma'lumotdan qoniqish hosil qilganligida o'z ifodasini topadi. O'qish murakkab retseptiv aqliy faoliyat hisoblanib, uning jarayon tomoni analitik-sintetik xarakterga egadir.

O'qish orqali biz ma'lumot olamiz, bilimimizni, dunyoqarashimizni kengaytiramiz, shuning uchun o'qish nutq faoliyatining turidir. Hozirgi davrda metodika o'qishni ingliz tilini o'qitish usuli, yo'li deb qaralmay, uni til materiallarini o'zlashtirishga yordam beruvchi, uni asosida (matndan) nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan material manbai, ma'lumot olish manbai deb qaralmoqda. Shu sababdan o'qiyotganda asosiydiqqatmatn mazmuniga qaratiladi. Dasturda o'qish bo'yicha umumiy talablar va har bir sinflar, kurslar uchun talablar belgilanib beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Oliy ta'limda o'qishni o'rgatish ham maqsad, ham vositadir, ya'ni o'qish chet tili o'rgatishda ham maqsad, ham vosita vazifasini bajaradi. Ingliz tilida o'qish ko'nikmasini egallash litsey, kollejlarda, oliy ta'limda ingliz tili o'qitishdan kutilgan amaliy maqsadlardan biri hisoblanadi. Agar o'rta maktabni bitirib chiquvchilarning o'qish ko'nikmasi mukammal bo'lsa, ular o'zlari egallagan ana shu ko'nikmadan amaliy ravishda mustaqil foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. O'qishning yetuklik darajasi har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun oliy ta'limda o'qishning minimal rivojlanish darajasiga erishish vazifasi turadi.

O'qishning amaliy maqsadi o'qib ma'lumot olishdir. Amaliy maqsaddan tashqari o'qishni o'rgatish umumta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini ham nazarda tutadi. Bulardan tashqari o'qishni o'rgatish rivojlantiruvchi maqsadni ham amalga oshiradi. O'qish paytida o'quvchi, talabaning o'rganilayotgan ingliz tili matni bilan uning kuzatuvchanligi rivojlanadi va ularning til material, matn mazmunini analiz va sintez qilish qobiliyatlari takomillashadi. O'qish til materialini egallab olishda muhim vosita hisoblanadi. Shu narsani

alohida ta'kidlash kerakki, matnlarni o'qishni o'rgatish, lug'atni boyitish usullaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega.

O'qish, gapirish ko'nikmasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'qilgan matnlarning mazmuni bo'yicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbatva muhokamalar qilishi ko'p mashqlarga asos bo'ladi. O'qish orqali gapirish uchun ma'lumot, material to'planadi. Ularni ingliz tilida gapirishga tayyorlaydi. Ovoz chiqarib o'qish esa to'g'ri talaffuzga o'rgatishdava yangi til materialini tushunishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari ovoz chiqarib o'qish ovoz chiqarmay o'qishning yetuk ko'nikmasini shakllantirishda ham muhim vosita rolini o'ynaydi. Demak, o'qish, o'qitish maqsadi vazifasini bajarishdan tashqari, muhim o'qitish vositasi vazifasini ham o'taydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilib, zamon bilan hamnafas o'zbek yoshlarining xorijiy tillarni puxta egallashiga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun eng avvalo, o'quvchilarga ingliz tili darslarini yangi pedagogic texnologiyalar asosida o'tkazish, turli xil metod, rolly o'yinlardan foydalanish orqali ularning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish nazarda tutilgan. Buning uchun eng avvalo o'quvchilarning chet tilida o'qish malakalarini hosil qilishda va o'stirishda o'qishning rolini va uning o'quv jarayonidagi o'rnini aniqlab olishimiz kerak.

Ma'lumki chet tili o'rgatishda o'qishning 2 funksiyasi mavjud:

O'qish – chet tili o'rgatishda maqsad hisoblanadi;

O'qish – chet tili o'rgatish vositasi.

Birinci funksiyaga muvofiq oliy ta'limda chet tili o'qitishda o'qish malakalarini hosil qilish amaliy maqsadlardan biri hisoblanadi. O'qish malakalarining darajasi talabani chet tilida o'qishni nutq faoliyatining turi sifatida qo'llash bilan o'lchanadi. Bu esa o'qish vaqtida o'quvchi oldiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqadi. Shunga ko'ra o'qish jarayoni turlicha bo'lishi mumkin. Matndan informatsiya olish uchun o'qish; Matndan informatsiya olish bilan birga uni ayni paytda boshqa o'quvchiga uzatish; Bunda, birinchi holatda, ovozsiz o'qishga o'rgatilsa ikkinchi holatda ovoz chiqarib o'qish tavsiya qilinadi.

Oliy ta'limda ovozsiz o'qishga o'rgatish kerak, chunki ovoz chiqarib o'qish o'qituvchilar, aktyorlar, suxandonlar kabi ayrim soha kishilariga taalluqli. Ko'pchilik uchun o'qish vaqtida informatsiya olish asosiy maqsaddir. Bu esa ovozsiz o'qish malakalarini o'stirishni talab etadi. Matn informatsiya olish uchun o'qilganda o'qishning quyidagi 3 turi farqlanadi:

Ko'zdan kechirib chiqish,

Sinchiklab o'qib chiqish,

Tanishib chiqish (izohlash kerak).

Ko'zdan kechirib chiqilganda o'qilayotgan matnning mavzusi haqida tushunchaga ega bo'lish maqsad qilib qo'yiladi. Buning uchun esa kirish qismini ayrim gaplarni tezda o'qib, ya'ni ko'zdan kechirib chiqish yetarli. O'qishning "tanishib chiqish" turida o'quvchi o'qilayotgan matn, maqola yoki kitobning aniq mazmunini bilishni maqsad qilib qo'yadi va butun diqqatini asosiy axborotga qaratadi, shuning uchun ham o'qishning bu turi ba'zan butun mazmunini qamrab olishga qaratilgan o'qish ham deb ataladi. O'qishning 3-turida, ya'ni sinchiklab o'qilganda o'quvchi matndan anglashilayotgan mavzu bilan to'la taninish, uni tanqidiy analiz qilish va olingan axborotni kelgusida qo'llash aniq maqsad qilib qo'yiladi. O'qishning bu turi sekin amalga oshiriladi. Zarur bo'lsa matnning ayrim joylari qayta o'qiladi. Ingliz tili darslarida o'quvchilarni o'qishga o'rgatishda o'qishning tezligi masalasi ham katta ahamiyatga ega.

Shuni aytib o'tishi kerakki o'qishga o'rgatish ya'ni chet tilida o'qish amaliy maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. O'qish nutq faoliyati turlaridan biri bo'lganligi uchun ham u chet tilida o'qitishning effektiv vositasi bo'la oladi. Masalan: til materialini ko'rish sezgilari orqali idrok etilganda xotirada yaxshi saqlanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuning uchun ham yuqori bosqichda matnlarini o'qish o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish usullaridan biri hisoblanadi.

Talabalar ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o'rganadilar va undan og'zaki va yozma shakllarda foydalana olishlari kerak. Ingliz tilining shaxslararo va xalqaro muloqot vositasiga aylanishi uchun muloqotning barcha shakllarini va barcha nutq funktsiyalarini egallash juda muhimdir. Talabalar nutq faoliyatining to'rt turini o'zlashtirishlari kerak: o'qish, tinglash, yozish va gapirish, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan tilning uchta jihati – lug'at, fonetika va grammatikaning afzalliklari haqida unutmasligi kerak.

O'qish-og'zaki xabarni idrok etish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan nutq faoliyatining retseptiv turi. O'qituvchining o'zi darsda og'zaki nutqida foydalanadigan materialni tanlashda uning oldiga qo'yadigan maqsadlarni hisobga olish kerak: birinchidan, talabalarning xorijiy nutqni tinglash va tushunish qobiliyatini rivojlantirish; ikkinchidan, tinglash jarayonida o'quvchilarning passiv so'z boyligining taniqli kengayishi va ularning kontekstdan taxminlarini rivojlantirish. U yoki bu shakl yoki iborani qo'llashda o'qituvchi uni talabalarga to'g'ri tushunish uchun barcha choralarni ko'rishi kerak. Bunga erishish uchun quyidagilarni yodda tuting: u yoki bu ingliz iborasini ishlatgan holda, o'qituvchi keyingi darslarda xuddi shu shaklga rioya qilishi kerak, uni o'zbek tilidagi ekvivalenti yoki ingliz tilidagi boshqa shunga o'xshash ibora bilan almashtirmasligi kerak.

O'qituvchi talabalarning o'zi ishlatgan iboraning umumiy ma'nosinigina emas, balki alohida qismlarini ham tushunishini ta'minlashi kerak. Talabalarning o'qituvchi nutqini to'g'ri tushunishlari tizimli ravishda tekshirilishi kerak. Har bir yangi ibora o'qituvchi tomonidan nafaqat birinchi marta qo'llanilgan darsda, balki keyingi darslarda ham ko'p marta takrorlanishi kerak. Tinglash bo'yicha treningning maqsadlari quyidagicha belgilanishi mumkin: muayyan nutq qobiliyatlarini rivojlantirish; muloqot qilish qobiliyatini o'rgatish; zarur qobiliyatlarni rivojlantirish; nutq materialini yodlash; o'quvchilarni gapning ma'nosini tushunishga o'rgatish; talabalarni axborot oqimidagi asosiy narsani ajratib ko'rsatishga o'rgatish; eshitish xotirasini va eshitish reaksiyasini rivojlantirish. Audio materiallar bilan ishlashda talabalarning bir vaqtning o'zida bir nechta nutq qobiliyatlari ustida ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

O'qish – yozma matnni idrok etish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan nutq faoliyatining retseptiv turi. Chet el matnini o'qish va tushunish uchun u tanib olish jarayonini bir zumda amalga oshiradigan fonetik, leksik va grammatik informativ xususiyatlar to'plamiga ega bo'lishi taxmin qilinadi. O'qish jarayonida idrok va tushunish jarayonlari bir vaqtning o'zida va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, uning jarayonini ta'minlaydigan ko'nikmalar shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: o'qishning "texnik" tomoni bilan bog'liq (grafik belgilarni idrok etish va ularning ma'lum ma'nolar bilan bog'liqligi va idrok etilayotganning semantik qayta ishlanishini ta'minlash – turli darajadagi til birliklari o'rtasida semantik aloqalarni o'rnatish va shu bilan matn mazmuni, muallifning niyati va boshqalar. Dastlabki bosqichda o'qishga o'rgatishda talabani to'g'ri o'qishga, ya'ni ovozli grafemalarga, fikrni ajratib olishga, ya'ni matn ma'lumotlarini tushunishga, baholashga, undan foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar o'quvchining qanchalik tez o'qishiga bog'liq. O'qish texnikasi orqali biz nafaqat tovush va harfning tez va aniq o'zaro bog'liqligini, balki tovush-harf aloqasining talaba o'qiyotgan narsaning semantik ma'nosi bilan bog'liqligini ham tushunamiz. Aynan o'qish texnikasini o'zlashtirishning yuqori darajasi o'qish jarayonining o'zi natijasiga – tez va sifatli ma'lumot olish imkonini beradi.

XULOSA

Bugungi kunda ingliz tilini maxsus yo'nalishlarda o'qitishda nutq faoliyatining bir qismi hisoblangan o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda turli samarali yondashuvlardan, shuningdek, fan va texnikaning turli sohalariga oid multimedia materiallaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa, o'rganilayotgan til materiallarini o'qib tushunish jarayonida,

tanqidiy fikrlash, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdixalikovna, E. F. (2024). Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitish muammo va yechimlari. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 90-92.
2. Bathia, V., Anthony, L., & Noguchi, J. (2011). ESP in the 21st century: ESP theory an application today. *Proceeding of the JACET 50th Commemorative International Convention* (vol.143).
3. Carter, D. (1983) 'Some propositions about ESP'. In the *ESP Journal*. 2, (pp. 131-137).
4. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2001). *Reading for Academic Purposes: Guidelines for the ESL/EFL Teacher*. U M. Celce-Murcia (Ed.), *Teaching English as a Second or Foreign Language* (pp. 187-203). Boston: Heinle & Heinle/Thomson Learning.
5. Lamri, C. E. (2016). *An introduction to English for Specific Purposes (ESP)*. Tlemcen: AbouBekrBelkaid University.
<https://faclettre.univtlemcen.dz/assets/uploads/documents/cours%20en%20ligne/4-6>.
6. Zafar, D., & Sardor, O. (2022). Difficulties of non-philological students in learning vocabulary and using relevant texts in teaching English. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(02), 163-165.
7. Яхшибоева Г.О. Interactive style of language teaching in ESP institutions. *International journal of word art special issue – 3* ISSN 2181-9297 DOI journal 10.26739/2181-9297, p: 366-371.
8. Dadabayev Zafar Zakirovich. (2025). *METHODS OF TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES*. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 36, 181–185. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/1458>.